

Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**IMPORTANT FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF TRANSLATION AND UZBEKISTAN SCIENTISTS WHO CONTRIBUTED TO ITS DEVELOPMENT*****Diloram T. Mirzaliyeva****Doctor of Philosophy (PhD) historical sciences of**Yangi asr University, Lecturer**Department of "Classical Oriental Philology"*[*dilorom_mirzaliyeva@gmail.com*](mailto:dilorom_mirzaliyeva@gmail.com)*Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: method, foreign language, Arab countries, classical Arabic, translation, public speaking, vocabulary.

Abstract: This scientific article covers in detail innovative approaches, the formation of a translator, teacher-student cooperation, biographies of Uzbek translators A. Abdujabborov, A. Hasanov, N. Ibragimov, and B. Ibragimov, the translator's scientific internship, his skills, and other issues.

Received: 08.05.26**Accepted:** 09.05.26**Published:** 10.05.26**TARJIMONNING RIVOJLANISHIDAGI MUHIM OMILLAR VA UNI RIVOJLANISHIGA XISSA QO'SHGAN O'ZBEK OLIMLARI*****Diloram T. Mirzaliyeva****Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD**Yangi asr universiteti, "Mumtoz sharq filologiyasi"**kafedrasida o'qituvchisi*[*dilorom_mirzaliyeva@gmail.com*](mailto:dilorom_mirzaliyeva@gmail.com)*Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: metod, chet tili, arab davlatlari, klassik arab tili, tarjima, nutq san'ati, so'z boyligi.

Annatsiya: Mazkur ilmiy maqolada innovation yondashuvlar, tarjimonning shakllanishi, ustoz-shogird-hamkorligi, o'zbek tarjimonlari A. Abdujabborov, A. Hasanov, N. Ibragimov hamda B. Ibrohimovlarning tarjimai hollari, tarjimonning ilmiy amaliyotni o'tashi, uning mahorati va boshqa masalalar atroflicha yoritilgan.

ВАЖНЫЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ПЕРЕВОДА И УЗБЕКСКИЕ УЧЕНЫЕ, ВНЕСШИЕ ВКЛАД В ЕГО РАЗВИТИЕ

Дилорам Т. Мирзалиева

Доктор философии в области исторических наук (PhD)

Преподаватель кафедры «Восточная филология»

Университет «Янги аср»

dilorom_mirzaliyeva@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

<p>Ключевые слова: иностранный язык, классический арабский язык, публичные выступления, арабские страны, перевод, лексика.</p>	<p>Аннотация: В данной научной статье рассматриваются подробно инновационные подходы, формирование переводчика, сотрудничество преподавателя и студента, биографии узбекских переводчиков А. Абдуджабборова, А. Хасанова, Н. Ибрагимова и Б. Ибрагимова, научная стажировка переводчика, его навыки и другие вопросы.</p>
---	--

Kirish. Ma'lumki, hozirgi kunda hamma sohada yangiliklar bo'lib turgan vaqtda tarjimonning rivojlanishi va shakllantirish masalalari dolzarb hisoblanadi. Har qanday davrda xalqlar va mamlakatlar o'rtasidagi muloqotlar mohir tarjimonlarning ishtirokisiz o'tmagan. Tarjimonning shakllanishi – murakkab jarayon. Bu jarayon kompleks tayyorgarlikni talab qilgan va shunday bo'lib qoladi. Sharq donishmanlaridan birining ta'kidlashicha, “izlanayotgan ilm tolibi uchun 24 soat kam”. Ushbu dono fikr – hamon dolzarb. Bu haqiqatni mas'uliyatli kasbni ixtiyor etgan insonlar doimo esda saqlagani ma'qul. “Bir soat mehnat qilish, kun bo'yi tushuntirish berishdan ko'ra afzalroqdir” (<https://conference.uzswlu.uz/conf/article/view/562/624>). Tarjimonlik – azaliy, mas'uliyatli va faxrli kasblardan biri. Tarjimashunoslik tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Buyuk Ipak yo'lida xalqlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishda asosan tilmochlar muloqot vazivasini bajarganlar. 1960-1980-yillarda yuzlab tajribali tarjimonlarimiz Osiyo va Afrika mamlakatlarida sobiq Sovet mutaxasssilar bilan yelkama-yelka turib, o'z vazifalarini sharaf bilan bajarganlar. Ulardan ustoz tarjimonlardan A.Abdujabborov, A.Hasanov, N.Ibragimov hamda B.Ibrohimovlarni eslab o'tish o'rinlidir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tilshunoslik eramizning III-I asrlarida fan sifatida Bobilda paydo bo'ldi. Shundan boshlab bu sohada kitob va darsliklar yozila boshladi. O'zbekistonda ham bu sohada bir nechta tadqiqotchilar ish olib brogan. Ular: M.Nosirova “Tilshunoslik bilimlari tarixi”, R.Rasulov “Umumiy tilshunoslik”, A.Abdurahmanov “Tarjima nazariyasi va amaliyoti: Arab tilidan o'zbek tiliga”, Shodmonov B. “Tarjimonlik metodologiyasi: Arab tili va o'zbek tili o'rtasidagi farqlar”. Unda tarjimon o'z ona tilini mukammal bilishi - ushbu

kasbning asosiy talabi qilib belgilangan (Alimova, 2022. p. 434). Tadqiqot materiallarining o'ziga xosligidan kelib chiqib, ular tavsifiy, qiyosiy tahlil asosida o'rganildi.

Natijalar. O'zbek arab tilida tarjimonlik faoliyatini olib borgan ustoz tarjimonlar A.Abdujabborov, A.Hasanov, N.Ibragimov hamda B.Ibrohimovlar yurt rivojiga hamda tarjimashunoslik fanlarini va tarjimonlarni shakllantirishga katta xissa qo'shganlarini inkor etib bo'lmaydi.

Ustoz Abduhafiz Abdujabborov 1940 yil 10 avgustda Toshkent shahrida tug'ilganlar. 1966 yili Toshkent Davlat universitetining Sharq fakultetiga kirib, 1970 yili imtiyozli diplom bilan tugatganlar. Mehnat faoliyatlarini 1966 yil o'qishdan ajralmagan holda mazkur fakultet arab filologiyasi kafedrasida arab tilidan dars berishdan boshlaganlar va shu kasbga bir umr sodiq qolganlar. 1970-yillar o'rtalarida "Progress" nashriyatining Toshkent bo'limida arab tahririyatiga rahbar va Bosh nazoratchi muharrir sifatida o'zbek adabiyotining durdona asarlarini arab tiliga tarjima qilib arab afkor ommasiga yetkazishda faol ishtirok etganlar. 1980-yillari Suriya, Yaman, Liviya kabi arab mamlakatlarida yurtimiz ishtirokida bunyod etilgan qator muhim ob'yektlarda tarjimonlik qilganlar.

1993-1998 yillar mobaynida Toshkent Sharqshunoslik instituti arab filologiyasi kafedrasini boshqarganlar. 2000 yildan umrlarining oxirigacha Toshkent islom universiteti Sharq tillari kafedrasida arab tilidan ustozlik qilganlar. Ustoz A.Abdujabborov "Arab filologiyasiga kirish", "Arab nahvi", "Klassik til xususiyatlari", "Tarjima va amaliyoti", "Balog'at ilmi - stilistika", "Arab nazariy grammatikasi" kabi maxsus kurslarini yaratib, o'quv jarayoniga tatbiq etishga muvaffaq bo'lganlar. Shu tariqa respublikamizda arabshunoslik rivojiga munosib xissa qo'shgan edilar. Ustoz A.Abdujabborov Mag'ribdan Mashriqqacha ma'lum va mashhur yurtdoshimiz M.Zamaxshariyning "الأتمودج" asari asosidagi o'quv qo'llanmani, "Qur'oni karim oyatlari va hadislarda ota – ona, qo'shnichilik munosabatlari", "Bilim – iymon chirog'i", "Inson ko'rki – odob" risolalari orqali shu mavzulardagi oyati karima va hadisi shariflarni ishlatib, ilmiy iste'fodaga kiritgan tadqiqotchi ham edilar.

Ustoz A.Abdujabborov yirik arab adiblarining asarlarini, qolaversa ko'plab badiiy va ko'p qismli arab filmlarini o'z vatandoshlariga ona tilisida yetkazib bera olgan sermahsul tarjimon edilar. Ular hatto sinxron tarjima bobida ham o'z iqtidorini ko'rsatgan, qanchadan - qancha xalqaro anjumanlar va hukumatlararo muzokaralar yuqori saviyada o'tishini ta'minlagan mohir tarjimon edilar (Abdujabborov, 2011, p. 3).

Ustozimiz A.Hasanov 1940 yil 29 martda Toshkent viloyati Piskent shahrida ziyoli oilasida tavallud topdilar. 1958-1964 yillar – Toshkent davlat universiteti talabasi, 1964-1966 yillar Toshkent davlat universiteti o'qituvchisi, 1966-1969 yillar sobiq ittifoqning Birlashgan Arab Respublikasidagi elchixonasida tarjimon, 1969-1971 yillar Toshkent davlat universiteti

o'qituvchisi, 1971-1975 yillar SSSR Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti aspiranti, 1975-1982 yillar Toshkent davlat universiteti o'qituvchisi, katta o'qituvchisi, dotsenti, 1982-1985 yillar Liviyada sobiq ittifoq Tashqi iqtisodiy aloqalar davlat qo'mitasi bosh texnik boshqarmasining tarjimoni, 1985-1991 yillar Toshkent davlat universiteti Xorijiy Sharq mamlakatlari tarixi kafedrasida dotsenti, 1991-1992 yillar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni Din ishlari bo'yicha bo'limi diniy tashkilotlar xalqaro aloqalar sho'basi mudiri, 1992-1993 yillar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni tashkiliy-kadrlar siyosati bo'yicha konsultanti, 1993-1998 yillar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni din ishlari bo'yicha konsultanti, 1998-2000 yillar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni millatlararo munosabatlar masalalari bo'yicha yetakchi konsultanti, 2000-2004 yillar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni millatlararo munosabatlar masalalari va din ishlari bo'yicha bosh konsultanti, 2004-2008 yillar Toshkent islom universiteti Dinshunoslik va jahon dinlarini qiyosiy o'rganish YUNESKO kafedrasida mudiri, 2008-2013 yillar Toshkent islom universiteti Dinshunoslik va jahon dinlarini qiyosiy o'rganish YUNESKO kafedrasida professori, 2013-2018 yillarda Toshkent islom universiteti Tarix kafedrasida professori vazifasida faoliyat yuritdilar. 2018 yildan hozirgi qadar O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi «Islom tarixi va manbashunosligi IRCICA» kafedrasida professori lavozimida ishlab kelmoqdalar.

Akademik Ne'matulla Ibrohimov 1945 yil 8 avgustda Marg'ilonda tavallud topganlar. Ular sharqshunos, manbashunos olim, jamoat arbobidirlar. Ustozi 2000 yil O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, 1990 yilda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, 1984 yil filologiya fanlari doktori, 1985 yil professor unvoniga sazovor bo'lganlar.

1970 yil Toshkent universitetining sharq fakultetini tugatganlar. So'ng 1970-1985 yillarda shu universitetning arab filologiyasi kafedrasida o'qituvchi, dotsent, professor, 1986 yilda kafedra mudiri, 1989-1991 yillargacha sharq fakulteti dekani, 1991 yildan Toshkent sharqshunoslik instituti rektori bo'lib ishlaganlar.

Ne'matulla Ibrohimov arab manbalari bo'yicha O'rta Osiyo tarixini o'rganish, arab xalq romanlari janri va uslubiy qurilishi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib bordi. Ne'matulla Ibrohimovning asarlari Sharq va G'arb tillaridagi nodir manbalarning chuqur tahliliga asoslangan. Ne'matulla Ibrohimov manbashunoslikda yangi yo'nalishlardan biri Sharq badiiy tafakkuri va elitar madaniyatlarining uzviy yagonaligi haqidagi konsepsiya asoslarini yaratdilar. "Arabskiy narodniy roman" (1984), "Ibn Battuta va uning O'rta Osiyoga sayohati" (1993), "O'rta asr arab xalq adabiyoti" (1994) "Pozdnesrednevekoviyy arabskiy knijniy epos" (1994) kabi kitoblari chop etilgan.

Ne'matulla Ibrohimov 2001 yildan O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyati kengashi raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi

O‘zbekistondan chetga olib ketilgan va xalq boyligi bo‘lgan arxiv hujjatlarini qaytarib olib kelish bo‘yicha maxsus komissiya raisi hamda 1995 yil O‘zbekiston Oliy Majlisi deputati bo‘lganlar.

Yana bir ustozimiz taniqli pedagog va tarjimon Baxtiyor Ibrohimov 1942 yil Toshkent valoyatida tug‘ilgan. U 1968 yil Toshkent davlat universiteti (Hozirda Mirzo Ulug‘bek nomli O‘zbekiston milliy universiteti) Sharq fakulteti (Hozirda Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti) arab bo‘limini imtiyozli diplom bilan tugatgan. 1967-1968 yillar Misr Arab Respublikasi Qohira universiteti talabasi, 1968-1970 yillar Toshkent davlat sharqshunoslik instituti laboranti, arab tili o‘qituvchisi, 1970-1972 yillarda Harbiy xizmat, Misr Arab Respublikasida harbiy tarjimon, 1977-1980 yillar (Xorijdagi faoliyati) Yaman Xalq Demokratik Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Mehnat vazirligi, ADEN universitetida arab tili tarjimoni, 1982-1990 yillarda Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom oliy ma‘hadida arab tilida so‘zlashuv ustози (o‘rindoshlik asosida), 1981-2003 yillarda Toshkent davlat sharqshunoslik instituti “Arab filolgiyasi” kafedrasida arab tili o‘qituvchisi, katta o‘qituvchisi, 1993-2003 yillar Misr Arab Respublikasining O‘zbekistondagi elchixonasi tarjimoni (o‘rindoshlik asosida), 2003-2023 yillarda Toshkent islom universiteti (hozirda O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi) “Sharq tillari” kafedrasida katta o‘qituvchisi, dotsent vazifasini bajaruvchi, 2004-2016 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devonida Dalat rahbarining arab tili tarjimoni (o‘rindoshlik asosida) lavozimlarida faoliyat yuritganlar.

Ustoz talabalikni tamomlaganlaridan beri, yaqin-yaqingacha, Respublikamizning shu sohadagi qator oliy o‘quv yurtlarida arab tilidan dars berib kelganlar. U taniqli pedagog bo‘lishi bilan birga faol tarjimonlik faoliyatini ham olib borgan. Bu sohada u ancha omadli mutaxassis hisoblanadi. Bugungacha u Misr Arab Respublikasining uch prezidenti – Anvar Sadat, Husniy Muborak va Abdulfattoh Siysiylarning nutq va muzokaralarini tarjima qilgan. Uzoq yillar davomida O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimovning arab tili tarjimoni bo‘lib, ularning Arab davlatlariga qilgan rasmiy va davlat tashriflari, hamda asarlarining tarjimasida ishtirok etgan. U Misr Arab Respublikasi, Yaman Xalq Demokratik respublikasi kabi do‘st arab davlatlarida ham tarjimonlik qilgan. Ustoz bir necha arab yozuvchilarining roman va qissalarini o‘zbek tilga tarjima qilib, nashr qilganlar. U tarjima qilgan o‘ndan ortiq arab filmlari o‘zbek tiliga dublyaj qilinib, yurtimiz oynai jahonida namoyish etilgan. B.Ibrohimov o‘z mutaxassisligi bo‘yicha lug‘at, darslik, qo‘llanma va so‘zlashgichlar tayyorlab, nashr etganlar. B. Ibrohimov baynalmilal jangchi, oliy ta‘lim a‘lochisi, “Hurmat belgisi” va “Do‘stlik” ordenlari sohibidir.

Demak, B.Ibrohimov arab tili tarjimoni bo‘lishi bilan arab tili grammatikasi, arab tilida so‘zlashuvga oid darslik va o‘quv qo‘llanmalar muallifi. O‘zbekcha-arabcha lug‘at tuzuvchi hamdir.

Xulosa. Yuqoridagi kabi mahoratli arab tili tarjimonlarini tayyorlash muhim va mohir tarjimonning shakllanishida quyidagi asosiy omillar o'z ahamiyatiga egadir: 1. Avvalo o'zining ona tilini mukammal bilishi – ushbu kasbning asosiy talabi. 2. O'zi tanlagan xorijiy til yoki tillarni mukammal o'rganishi, bunga nazariy va amaliy jihatdan jiddiy yondashuvlarni talab etadi. 3. Milliy va jahon adabiyotini ko'p o'qish, ular bilan yaxshi tanish bo'lish tarjimalar jarayonida doimo va hamma joyda asqotadi.

Adabiyot bilan yaqindan oshno bo'lgan tarjimonning so'z boyligi salmoqli bo'ladi, nutq madaniyati risoladagidek shakllanadi va turli madaniyatlar haqidagi bilimlar va tasavvurlar tarjimon mahoratining yuksalishiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Tabiiyki, adabiyotga mehr qo'yish tarjimonda teran va ravon so'zlash, tarjima qilish ko'nikmalarini orttira boradi. 4. Har qanday mohir tarjimon ustoz ko'rmog'i darkor. Negaki, ustoz tarjimashunoslik ilmining nozik qirralarigacha o'z tajribasi bilan o'rtoqlashadi, murakkab vaziyatlardan yo'qotishlarsiz chiqib ketish yo'llarini shogirdiga o'rgatadi, qolaversa, kasb sirlarini yetkazadi. 5. Xox shakllanayotgan, xox shakllangan mohir tarjimon bo'lsin, u muntazam izlanishda bo'lishi, xorijiy tillardagi so'z boyligini orttira borishi lozim (Alimova, 2022. p. 434).

Demak, ushbu kasb vakili doimo qabul qilingan protokolga muvofiq va mavsumga monand kiyinishi, o'z imidjiga e'tibor qaratgan holda toza va ozoda yurishi, intizomli bo'lishi, amalga oshirgan tarjimalari sirlarini oshkor qilmasligi, hushmuomalaligi asosiy omillardan hisoblanadi. "Tarjimon o'zining kasbiy faoliyati mobaynida turli holatlar va vaziyatlarga tushishi mumkin; muzokaralar, ishbilarmonlar uchrashuvlari va o'zaro shartnomalarni imzolash, sud jarayonlari, huquqiy va hamkorlik masalalarini muhokama qilish va ular yuzasidan shartnomalarni imzolash, xorijiy mehmonlar bilan madaniy dasturlarni amalga oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurahmanov A. (2004). Theory and Practice of Translation: From Arabic to Uzbek. Tarjima nazariyasi va amaliyoti: Arab tilidan o'zbek tiliga. – Samarkand: Samarkand University, - P. 144. (in Uzbek).

2. Abdujabborov A. (2025). Arabic language. Arab tili. – Tashkent: TIU. – P. 364.

3. Alimova K. (2022). The culture of professional communication of a guide-translator // Proceedings of the international scientific conference on Translation Studies: Problems, Solutions and Prospects. Kultura professionalnogo obsheniya gidaperevodchika // Tarjimashunoslik: muammolar, yechimlar va istiqbollar mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiallari. – Tashkent: May 31, p. 434. (in Russian).

4. Babur Giyasov. (2018). Literature and spiritual perfection // Adabiyot va ma'naviy barkamollik // "Guliston"., issue 3. – P. 23. (in Uzbek).

5. Rahmonov K. (2024). Cultural barriers and solutions in translation: The case of Arabic and Uzbek. Tarjima qilishda madaniy to'siqlar va yechimlar: Arab tili va o'zbek tili misolida. – Samarkand: Samarkand State University – P. 35. (in Uzbek).

6. Shodmonov B. (2023). Translation methodology: Differences between Arabic and Uzbek. Tarjimonlik metodologiyasi: Arab tili va o'zbek tili o'rtasidagi farqlar. Science and technology. – Tashkent. – P. 35. (in Uzbek).

7. Sadiqov A. (2023). Translation errors and methods of their prevention: Arabic and Uzbek. Tarjimada xatoliklar va ularni oldini olish usullari: Arab tili va o'zbek tilida. – Bukhara: Bukhara University. – P. 35. (in Uzbek).

8. <https://conference.uzswlu.uz/conf/article/view/562/624>.